# ONA TILI FANINING O‘QITILISHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR: UNING JAMIYATDAGI RAVNAQINI YUKSALTIRISH MASALALARI




Respublika ilmiy - amaliy - uslubiy anjuman materiallari to'plami

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYAT XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI VILOYAT BO'LIMI

# ONA TILI FANINING O'QITILISHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR: UNING JAMIYATDAGI RAVNAQINI YUKSALTIRISH MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy-uslubiy anjuman materiallari to'plami
(2019 yil, 21 oktabr)

Qarshi -2019

o`rganishi mumkin, lekin o`z onasi, otasi, yor-u birodarlari bilan baribir o`z ona tilida suhbatlashadi va bu suhbat orqali o`z mehrini namoyon qiladi. Shuning uchun ham ona tili insonga qon bilan kirib, jon bilan chiqguchi bir omildir.

O`zbek tilimiz biz uchun dunyodagi eng boy til hisoblanadi. O`z tilini o`z vatanidek, o`z onasidek ardoqlagan inson tabarruk va komil insondir. Ona tlini mukammal bilish har bir millat vakilining eng oliy burchdir. O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov aytganidek:

*Ona tilim sen borsan shaksiz,*
*Bulbul kuyin so`zga solaman.*
*Sen yo`qolgan kuning shubhasiz,*
*Men ham to`ti bo`lib qolaman.*



## ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ РИВОЖИДА МАҚОЛЛАРНИНГ ЎРНИ

*Ш. БОБОЖОНОВА,*
*ҚДУ магистранти*

Ўзбек тили ҳақида гап кетганда Алишер Навоий бобомиз кўз олдимизга келади. Алишер Навоий шеърият бўстонини яратибгина қолмасдан, сўз гулшанини ҳам яратган улуғ санъаткор. Она тилимизнинг барча гўзалликлари унинг асарларида ўзига хос жило ва ранглар билан намоён бўлган. Улуғ тилшунос Алишер Навоийнинг туркий тил тарихи ва тараққиётида тутган ўрни фанда бир неча бор тан олинган ва қайд қилинган.

Ўзбек адабий тилининг асосчиси Алишер Навоий она тилимизнинг ривожланиши учун беқиёс хизмат қилиб, XV асрда ўзбек адабий тилини давлат тили даражасига кўтариб, бу тилнинг энг бой, дунё тиллари орасида ўз ўрнига эга эканлигини яратган асарларида намоён қилди. У ўзининг ғазал лари ва насрий асарларида ўзбек тилининг бетакрорлигини, сержилолигини, гўзаллигини кўрсата олди. Жаҳон тилшунос олимлари дунё миқёсида эътироф этилган энг улуғ ижодкорларнинг сўз бойликлари бўйича тадқиқотлар ўтказганларида Алишер Навоийнинг сўз бойлиги (такрорланмаган сўзлар) 26 минг 35та эканлигини эътироф этишган. Шундан ҳам кўриниб турибдики, ўзбек халкининг тафаккур уммони буюкдир, сўзимизда шу уммоннинг томчилари ифодаланади. Уммонимиз чексиз бўлгани учун сўзларимиз ҳам мисли кўрилмаган даражада кўпдир.

Шонли тарихимизда она тилимизнинг ҳақиқий фидойилари Маҳмуд Кошғарий, Алишер Навоий, Бобур, Огаҳий, Абдулла Қодирий, Фитрат, Чўлпон, Ойбек, Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов каби юзлаб буюк алломалар, шоир ва ёзувчилар, тилшунос ва адабиётшуносларимиз она тилимиздаги сўзлардан унумли фойдаланиб, ўзбек тилида бетакрор ва дурдона асарлар яратганлари маълум. Она тилимиз ватанимизнинг муқаддас рамзлари байроқ, мадҳия ва герби сингари азиз ва муқаддасдир. Она тилимизни асраш ва ривожлантириш барчамизнинг муқаддас вазифамиздир.

Ўз она тилини муқаддас тушунчалар даражасида улуғлаган халқимизнинг маънавиятида ўзлигини англашнинг мазмун ва моҳиятида ватанпарварлик, халқпарварлик, бағрикенглик, тараққиётпарварлик ва меҳнатсеварлик, бунёд-корлик каби умуминсоний кадриятлар янада кўркамлашиб, ўзбекона меҳр-мурувват, ўзаро ҳурмат, ўзгалар дардига ҳамдардлик, диний ва дунёвий илмдаги умуммуштараклик каби ранг-баранг тушунчалар билан ўзаро уйғунлашган эътиқод янада баркамоллашиб бормоқда. Тарихимиз, маданиятимиз ва маънавиятимизни улкан илдизларига бориб тақалувчи тилнинг буюк кудрати ҳам ана шундадир.

Она тилини ёшлар қалбига сингдиришда мақолларнинг, ибораларнинг, ҳикматли сўзларнинг ўрни беқиёсдир. Айниқса, ёшларда инсоний фазилатларнинг шаклланишида халқнинг кўп асрлик ҳаётий тажрибалари акс этган мақоллар ўзига хос тарбиявий аҳамиятга эга. “Тил-ақл безаги”, “Тил-ақл тарозиси”, “Тил-дил калити”, “Тил сақлаган сир сақлар”, “Тил-тиғдан ўткир”, “Тили ширин –элга ширин”, “Тили шириннинг дўсти кўп”. “Тилингда бўлса болинг, кулиб турар иқболинг”, “Тўғри сўзли одам туғишганингдан афзал” каби мақоллар инсонни ҳар доим ўйлаб, фикрлаб, ақл билан мулоқот қилишга, хушмуомала, хушфеъл бўлишга, ўзаро ҳурматни сақлаш учун

мулоҳазакор ва самимий бўлишга чорлайди. "Тилга ихтиёрсиз, элга эътиборсиз", "Тилдан тойган йиғлайди, тилини тийган гуллайди", "Тилингни тийсанг етарсан, тилингни тиймасанг кетарсан", "Тилнинг бўшлиги бошга етар", "Тўғри гапирсанг кутиласан, эгри гапирсанг тутиласан", "Тўғри одам эгри сўздан ор қилар" каби мақоллар эса ноўрин ва ножоиз айтилган ҳар бир сўз ёки ҳар бир хатти-ҳаракатлар оқибатида келиб чиқадиган муаммоларни олдиндан англашга, ақл-фаросат ва эҳтиёткорлик билан иш тутишга ҳамда сермулоҳазали бўлишга ундайди.

Тил, муомала ва нутқ билан боғлиқ инсонда инсоний сифат ва фазилатларни шакллантириш билан боғлиқ бўлган юзлаб ўзбек мақолларини келтиришимиз мумкин. Нутқ ва тил муҳим омил сифатида миллат маданиятининг ажралмас қисмидир.

Тил-миллатнинг кўзгуси, тил-миллатнинг овози, тил-миллатнинг ғурури, мадҳиясидир. Энг асосийси, тил-миллат тушунчасини шакллантирувчи энг асосий белгилардан биридир. Тилда миллатнинг, халқнинг тарихи, ўтмиши, бугуни маданияти ва маънавияти ўз ифодасини топади. Ҳозирги кунда маънавий, маданий меросимизга, миллий диний қадриятларимизга оид манбалар ўз она тилимизга ўгирилиб ундан ҳамма бирдек фойдаланмоқда.

Тил – қудратли қурол, ундан моҳирона фойдаланилса, у мўъжизалар яратади. Донишмандлар "Тилга эътибор – элга эътибор" деб бекорга айтишмаганлар. Инсон она тилининг поклигига, софлигига эришгандагина гапира олиш санъатини, сўзлаша билиш маданиятини эгаллаши ва унинг яратувчанлигига эриша олади. Она халқимиз айтганидек: "Севдирадиган ҳам тил, юпатадиган ҳам тил", "Бахтли қиладиган ҳам тил, бахтсиз қиладиган ҳам тил", "Сўзи тўмтоқнинг ўзи ҳам тўмтоқ", "Кишининг ҳурмати тилида", "Сўзи совуқнинг ўзи совуқ", "Сиз" дан "сиз" чиқади, "сен" дан "сен"...

Тил миллатни миллат қилиб турган асосий белгилардан биридир. Тил миллатнинг, халқнинг қалби, юраги ва дилидир. Ҳар бир тил ўз халқи учун азиз ва бебаҳодир. Тил одамларни бирлаштиради, дилини дилига пайвандлайди, аҳилликни кучайтиради.



Таълим – тарбия бераётган инсон ўз тилида ҳар хил қоришмалар ва шева сўзларини пала-партиш ва нўноқлик билан ишлатиб, шогирддаги она тилига бўлган муҳаббатни сўндирмаслиги лозим. Зеро, она тилига бўлган муҳаббат – Ватанга муҳаббатдир, она тилига бўлган садоқат – Ватанга садоқатдир. "Она юртинг – олтин бешигинг" бўлса, **она тилинг бутун борлиғинг, ўзлигинг, ҳалоллигинг, бойлигинг, буюклигинг, инсонийлигингдир.**

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 1-12 жилд. 2000-2006 йиллар
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Давлат илмий нашриёти. 1-5-жилд. 2006-2008.


## TIL – BUYUK MO`JIZA!


*Laylo* **AHMEDOVA,**
*Chiroqchi tumani 9-umumiy maktab ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*


So`z – gavhar. So`zlashdan murod anglatishdir. So`zlashuv quroli esa til. Til mo`jizadir! Til tafakkurning ifoda quroli bo`lish bilan bir qatorda odam bolasi uchun jon kabi zarur hodisa sanaladi. Insonni mavjudotlarning gultoji sifatida sharafga burkaganini, o`zi ham oliy maqom kasb etgan ilohiy ne`matligini agnlash, his qilish har bir inson uchun ezgu amal hisoblanadi. Bayon qilish insonning kechinmalarini, tuyg`ularini, xotiralarini, taassurotlarini so`z orqali ifoda eta olish ne`matidir. Til-bebaho qadriyat. Har bir qadrli bo`lgan tushunchalar qadriyat bo`lsa, ona tilimiz eng buyuk qadriyatimizdir. Xalq hayotining yuksalishida tilning o`rni beqiyos, chunki til bo`lmaganda "ilon o`ynatganday so`z o`ynatganlar" ni, "mashhuri dunyo bo`lgan Mashrablar"ni, "Tili burro Abdullolar" ni hech kim tushunmas edi. So`z mulkining sultoni Alisher Navoiy ta`kidlaganidek, ko`ngil tug`yonlariga nazm libosini kiydirishda tilning xizmati katta.

## MUNDARIJA


| № | Муаллифлар Ф.И.Ш. | Мақола номи | Бет |
|---|---|---|---|
| 1. | Jo'rayev B. | Ma'naviy qudratimiz timsoli | 3 |
| 2. | Panjiyev M. | Ona tili – ma'naviy-ruhiy poklik omili | 5 |
| 3. | Qozoqboy Yo'ldosh | O'zlik qo'rg'oni | 7 |
| 4. | Умарова Д. | Халкларни бирлаштирувчи омил | 17 |
| 5. | Bobojonov Sh., Bobojonova Sh. | Til - millat g'ururi | 18 |
| 6. | Улуғбек Ҳамдам | Тил – миллатнинг маънавий паспорти | 21 |
| 7. | Улуғбек Ҳамдам | Танглайимизни она тилимиз кўтарсин | 26 |
| 8. | Фозил Фарҳод | Учта куч бирлашса, кўлдадир дунё | 29 |
| 9. | Тўлаганов Ш. | Она тили – миллатнинг руҳидир | 34 |
| 10. | Qurbanova M. | Uy ishlarining o'quvchi yoshiga mosligi va uni bajartirishda bolaning ruhiy va jismoniy holatini inobatga olish | 39 |
| 11. | Ergasheva L. | O'quvchilarni kitob o`qishga qiziqtirish o`rqali ularning savodxonlik darajasini oshirish | 47 |
| 12. | Murodova Ch. | Til – tengi yo'q boylik, madaniyatimiz ko'zgusi | 51 |
| 13. | Meyliyeva Z. | Davlat tili- millat tili | 54 |
| 14. | Тошниёзова М. | Тил бойлиги-эл бойлиги | 57 |
| 15. | G'oziyeva O. | Ona tili darslarida "Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi." | 62 |
| 16. | Муротов Қ. | Til yashasa, millat yashaydi | 70 |
| 17. | Матёкубова Ю. | Ona tili — millat ruhi va g'ururi | 73 |
| 18. | Nurillayeva G. | Zamonamizning "Muhokamat ul-lug'atayn"i | 77 |
| 19. | Sattorova M. | Madaniy nutq tarbiyasi | 79 |
| 20. | Jamolova Yo. | Yosh avlodni ma'naviyatli inson etib tarbiyalashda ona tilining ahamiyati | 81 |
| 21. | Turdiyeva B., To'xtayeva O. | Ona tili - bu millatning ruhidir | [illegible] |
| 22. | Ahmedova B. | "Bilimlar bellashuvi", "Fan olimpiada"lari-iqtidor ko'zgusi | 85 |
| 23. | Чориева М. | Она тили-миллат маънавиятининг кўзгуси | 88 |
| 24. | Boynazarova M. | Til bor-millat bor | 91 |
| 25. | Бобожонова Ш. | Ўзбек тилининг ривожида маколларнинг ўрни | 92 |
| 26. | Ahmedova L. | Til – buyuk mo`jiza! | 95 |
| 27. | Amirqulova T. | Til—millat ruhining ko'zgusi | 98 |
| 28. | Berdiyeva M. | O'zbek tili O'zbekiston Respublika-sining ma'naviy mulkidir. | 100 |
| 29. | Sherqulova M. | Til – millat ko`rkidir | 102 |
| 30. | *Qurbonova G.* | Shakldosh so'zlarning so'z turkumlari bo'yicha qo'llanilishi | 104 |
| 31. | Бакирова Д. | "Теша теккан" лекин ўймаган гаплар | 107 |
| 32. | Saidova S. | Ona tilim jarangi olam uzra taralgay… | 110 |
| 33. | Achilova M. | Dostonchilikning o'ziga xos xususiyatlari va undagi muammolar | 111 |
| 34. | Эргашева К. | Ona tili darslarida grammatik mavzularni yetkazishning noan`anaviy usullari, adabiyot orqali ma`naviyatni yuksaltirish, yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalash yo`llari haqidagi darslarni tashkil etish | 113 |
| 35. | Iskandarova F. | Eng katta maqsad - og`zaki va yozma nutq savodxonligiga erishish | 116 |
| 36. | Shukurova M.P. | Tillarni o'qitishda zamonaviy ta'lim usullari | 120 |
| 37. | Ibotova N. | Adabiy ta'limga zamonaviy yondashuv | 123 |
| 38. | Qo`lmatova M. | Morfem lug'atlardan o'quv lug'ati sifatida foydalanish | 125 |
| 39. | Азизова Н. | Мулокот маданияти | 127 |